

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING NUTQI TAFAKKURINI O'STIRISH YULLARI

**Eshchanova Gawxar**  
*dotsent UrDU*

*"Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrası*  
*Ózbekiston, Urgench*

**Genjebayeva Gulbanu**  
*NDPI 2-kurs magistri*  
*Ózbekiston, Nukus*

**Аннотация.** Стáтья рассмáтривает вопросы на основе поставленных государственных критериев по развитию речи и мышление детей дошкольного возраста в дошкольных образовательных организациях, раскрывает сущность понятия роль и место развитие речи детей в процессе воспитания дошкольных образовательных организациях и вместе с тем особое внимание уделяется развитию мышление и мировоззрение детей дошкольного возраста. Стáтья посвящена изучению проблемы наблюдение и результаты экспериментального исследования на основе поставленных государственных критериев по развитию речи и мышления воспитанников дошкольных образовательных организаций.

**Ключевые слова:** дети дошкольного возраста, развитие, дошкольные образовательные организаций, проблемы, мышление и мировоззрение.

**Annotation.** The dissertation examines the problems of the development of speech and thinking of preschoolers in accordance with state requirements for the development of preschoolers. It discusses the role of speech development in a child's life in preschool education and the importance of developing the thinking and attitudes of children in this regard, as well as ways to develop it through preschool speech control. According to them, the reflects the results of regular observations and experiments, research based on state requirements for speech and thinking of preschoolers.

**Key words:** child's life in preschool education, of speech, of preschoolers in accordance, speech and thinking.

Har qaysi fan dialektik qonuniyatlaga suyangan holda o'z oldiga qo'yilgan masalalarni to'g'ri hal qila oladi. Til o'qitish metodikasi fani ham bundan mustasno emas. U insonning barkamol avlod bo'lib shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Eng avvalo, ona tilimizda to'g'ri, ta'sirli va jarangdor so'zlash yo'l-yo'iqlarini singdirish qolaversa, insonda s'oz zahirasini shakllanirish va undan o'rinli foydalanish malakasini hosil qilish lozim. Buning uchun esa grammatikani o'qitish, til qonuniyatlarini singdirish, ularni tabiat va jamiyatning umumiy falsafiy qonuniyatlari asosida tushuntirish muhimdir. Til o'qitish metodikasi

fanida o'qituvchi o'quvchi hamkorligi etakchi tamoyil sanalsa, nazariy ma'lumotlarni falsafiy qonuniyalar asosida tushuntirish lozim. Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov – "Bizning endigi vazifamiz – ma'naviy hayotimizni, ilm- fanimiz faoliyatini, izlanishlaimizni mana shu eski mafkura qoliplaridan xalos etish, kerak bo'lsa, tafakkurimizni mutelik iskanjasidan forig' qilishimiz zarur", deya ta'kidlagan edi. Zero, bolalarning tafakkurini o'stirish, fikrning mantiqiy rivojlanishini shakllantirish, ular ongiga milliy istiqbol g'oyasini singdirish uchun ona tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini joriy etishimiz dars mazmuniga falsafiy metodologiani singdirish shu kunning dolzarb masalalaridan sanaladi.

Ma'lumki inson tafakkur orqali har narsani biladi, o'rganadi. Narsa va hodisalar o'rtasidagi munosabatlarni anglab etadi. Ana shu anglab etish ruhiyatini singdirish uchun bolalarimiz mashg'ulotlarda, xotira jarayonlari bilangina kifoyalanmasdan balki ularni o'ylanishga, o'ylantirishga nimanidir yangidan yaratishga o'rgatish zarurdir. Chunki o'tgan davrlarda ijodiy tafakkur, umumnazariy-falsafiy tafakkur toptaldi. Dunyoni rang - barang idrok etish, qarashlar xilma-xilligi o'rnida bir xillik hukmronlik qilib turdi.

Ya'ni fikrlar xilma-xilligi inkor etildi. Ayni paytda har bir pedagog maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar va o'quvchilarning qanday tafakkurga egaligi, yashashi va amaliy faoliyatlari qaysi tamoyillarga, maqsadlarga bo'ysundirilganligini bilishi shart. Bilishigina emas, balki ana shu tafakkurni o'zgartirishi, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashi falsafiy qonuniyatlarni, ayniqsa, hozirgi o'zbek adabiy tili darslari va nutq o'stirish mashg'ulotlarida qo'llashi muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, bolalar tafakkurining voqealanishi ular nutqining rivojlanishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham til tafakkurning moddiylashuvidir. Tafakkuri rivojlangan bola fikrini izchil bayon eta oladi, ma'lum masala bo'yicha kengroq mushohada qiladi, to'g'ri hukm chiqaradi, sharoitga ko'ra o'z qarashlarini bayon qila oladi. Ana shu maqsadga erishish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat (mashg'ulot)larni

falsafa, mantiq fanlarining elementar zaruriy qismlari bilan bog‘lab tashkil etish muhim ahamiyat kasb e’tadi. Darvoqe, buyuk mutafakkir Arastu o‘zining “Metafizika” asarida bir qancha juft kategoriyalar, ya’ni zaruriyat va tasodif, butun va bo‘lak, yakkalik va umumiylik kategoriyalarning mohiyati va ularning o‘zaro aloqadorligi haqidagi fikrlarni ilgari surgan. Uning dialektikasi asosida insonning haqiqatga erishishda fikrlash jarayoni yotadi. Shuning uchun ham dialektika borliq va tafakkurning haqiqiy asosini aniqlash bilan bog‘liqdir. Jumladan, dialektika nutq va tafakkurni o‘stirishda ham zarur muhim o‘rin tutadi. Ayrim maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda uchraydigan fikrlashning poyma-poyligi mantiqiy to‘g‘ri fikr yuritishni bilmaganligidan deyish mumkin. Zero har bir fanni o‘qitishda falsafa va uning bir bo‘limi bo‘lgan mantiq ilmining to‘rtta asosiy qoidasiga rioya qilinmas ekan, tafakkurni rivojlantirish haqida gap bo‘lishi mumkin emas. Ya’ni ayniyat qonuni biror narsa haqidagi qonun boshqasiga o‘tib ketmaslik; ziddiyatsizlik qonuniga binoan bir vaqtning o‘zida ikkita zid fikrning bo‘lmasligi; istisno qonuni bir vaqtning o‘zida hamisha rost bo‘lib ikkinchisi yolg‘on bo‘lishi; yetarli asos qonuni dalillar asosida o‘z fikrini isbotlash bo‘lib to‘g‘ri fikrlash asoslanganlikni isbotlashni talab qiladi.

Yuqorida keltirganimiz fikrlarga tayangan holda shuni aytishimiz joizki, maktabgacha ta’lim vchidagi bolalar to‘g‘ri fikrlashlari uchun dalillash, asoslash, ziddiyatsizlik, istisno, ayniyat qonunlarini puxta bilmog‘l, shundan so‘nggina to‘g‘ri fikr yurita olmog‘i lozim.

Taniqli pedagog E.Z.Usmonova tafakkurning rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berishning yo‘l-yo‘riqlarini quyidagicha ko‘rsatgan: Muammoning yuzaga kelishi va fikriy vazifaning shakllanishi, vazifa javobini izlash va uni topish.

- a) ushbu topilgan javobni subektiv yangilikni ochilishi sifatida idrok etish;
- b) erishilgan javobning to‘g‘riligini isbotlash, uni boshqa kishiga asoslab berish tushuntirish.

Darhaqiqat, yuqorida ta’kidlanganidek, muammoning javobini hamda javobning asosini axtarish tafakkurning rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib

beradi. Zero, falsafiy kategoriyalar boshqa fanlarning tushunchalaridan o'zining umumlashganlik, tizimlilik, aloqadorlik, izchillik, muvofiqlashtirish kabi xususiytlarga ega ekanligi bilan farq qiladi. Demak, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning tafakkurni rivojlantirish uchun:

- a) bolalarning gap bo'laklari tartibiga rioya qilib gapirishlariga;
- b) o'z fikrlarini umumlashtira olishlariga, asoslay olishiga, ijodkorligiga, topqirligiga va tezkorligiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Faylasuf A.Choriev o'zining "Inson falsafasi" nomli asarida inson muammosini o'rganuvchi tadqiqotchilarning say-harakatlari ikki yirik qutbga bo'ysundirilishini, birinchi qutb – insonning tabiiy-ijtimoiy mohiyatini o'rganuvchi barcha fanlarning o'zaro aloqadorligini ta'minlashi zarur ekanligini ta'kidlaydi.

Tadqiqotchining fikricha, fanlar hamda narsa-hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikni anglagan tarbiyalanuvchi mashg'ulotlarda o'rgangan materiallarni to'g'ri o'zlashtira oladi. Ongida antisipirik layoqatlar rivojlangan tarbiyachi pedagoglarga maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim - tarbiya jarayonida bolalar tafakkurini o'stira oladi. Ongning antisipirik layoqatida uning uch xil funksiyasi ajratiladi:

- a) bilish (qiziquvchanlik va ko'p savolar berishga asoslangan);
- b) loyihalash (bu jarayon bolalarda turli o'yinlarni tashkillashtirishda yaqqol namoyon bo'ladi);
- c) tasdiqlay bilish (maqsad, dastur konsepsiyalarini amalga oshirish).

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning tafakkurini o'stirish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish til tarbiyasining jon tomiridir. Darvoqe, mustaqil fikrlash turli odamlar fikridan bilib-bilmay andoza olish emas, balki ko'rgan, idrok etgan, mushohada qilgan narsa-hodisalarga ongli munosabat bildirgan holda tahlil qilish, tizimlash, tasniflash, ular ichidan o'ziga taalluqli tomonlarini olib umumlashtirish va taqqoslash orqali hukm chiqarish, o'z nutqi orqali buni ifodalay olish qobiliyatidir. Ma'lumki, MTTda ta'lim- tarbiya ilk bolalaik

davriga to'g'ri keladi. Bu yoshda olamni bilishga, mantiqiy musohadaga psixologik tahlilga, mantiqiy fiklashga tafakkur qirralarini rivojlantirishga ishtiyoq va harakat kuchli bo'ladi. Shu bilan birga bolalarda fantaziyaga moyillik ham mavjud bo'ladiki, mana shu fiziologik-psixologik imkoniyatlari boshqa yoshdagi bolalarga nisbatan ko'proq ekanligini, olamni bilishga ishtiyoq kuchliligini bildiradi. Shuning uchun ham bolalik insonning shaxs sifatida shakllanishida asosiy bosqich bo'lib xizmat qiladi. Biz tadqiqot obekti sifatida tanlab olingan maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar hali yosh, ilg'or, bilimdon, qiziquvchi, bilimga intiluvchi axloq-odobi shakllanmagan, mustaqil fikrlash qobiliyati endi shakllanayotgan individ bo'lib, ulardagi ichki ehtiyoj o'zining imkoniyatlari darajasida amalga oshadi. Tarbiyalanuvchilar shaxsining rivojlanishida bu davrning shakllanishi o'ziga xos xususiyatga ega. Bu eng avvalo, ularda o'zini takomilashtirish istagi (e'tiborda bo'lish)ning kuchayishi va tilga, atrof-olamga bo'lgan qiziqishning o'sishi bilan xarakterlanadi. Bola shaxsiyatining yana bir muhim xususiyatlaridan biri - mustqil fikr yuritishga ishtiyoqning paydo bo'lishidir. Negaki, 4-6 yoshdagi bolalar ruhiyatida o'zini kattalar qatoriga qo'shilganday his etishi o'zining mustaqil fikrlashga intilishi bilan baholanadi. Hatto shu davrdan boshlab o'z tengurlari orasida ham ustunlik talashishi, liderlikga da'vo qilish holati paydo bo'la boshlaydi.

Shuning uchun ham bu davrda nazariy bilim berilmaydi, turli amaliy vaziyatlarga til va tafakkur vositasida munosabat bildirilishi shakllantiriladi. Bunda ko'proq izlanish, ijodiy yondashuv, tafakkur rivojiga e'tibor qaratish lozim. Jahon pedagogikasida falsafa psixologiya har bir fan uchun metodologik asos sanaladi. Chunki barcha fanlar nazariy jihatdan falsafiy qonuniyatlarga asoslanadi. Shuningdek nutq va tafakkur ham psixologiya va falsafiy qonuniyatlarga bilan chamcharchas bog'liqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so‘zlagan nutqi, 1997 , 29-avgust // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.– T.,1997, 4 b.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: O‘zbekiston, 1998, 68 b.
3. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi Nizom. // Maktabgacha tarbiya. –T., 2000, 1-son.
4. Usmonova E.Z. Pedagogika va psixologiya. – T.: O‘qituvchi, 2000 – B. 28.
5. Choriyev A. Inson falsafasi. – T.: Chinor ENK, 2002. B. 139.

